

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2025
TABIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

I.A.Ergashov, G'.G'.Zohidov, M.M.Turdibekov, Z.O.Yusupov, M.A.Davidov O'zbekistondagi <i>Melanocrommyum</i> kenja turkumining (Amaryllidaceae, Alliioideae) qiyosiy morfologik analizi.....	136
G.M.Zokirova Ignabargli o'simliklar va fitofag hasharotlar o'rtasidagi munosabat (fitonsidlar ta'siri misolida)	146
M.U.Mahmudov G'arbiy Farg'ona hududi Pentatomoidea (Heteroptera) katta oilasining ekologik va trofik tavsifi	150
Z.A.Jabbarov, F.N.Reymova, O.N.Imomov Sho'rlangan tuproqlarning kimyoviy ifloslanishi va ularning ta'sirini kamaytirish.....	155
M.A.Akhmadjonova, G.M.Zokirova Biology of development of representatives of the genus <i>Lixus</i> distributed in the Fergana valley.....	160
O.E.Omonov Katta va Kichik O'radaryo havzalari florasining endem turlari bo'yicha tahliliga doir	166
Y.Q.Qayumova, D.I.Komilova Qoradaryo suv havzasining o'rta oqimida uchrovchi Kushakevich yalang balig'i (Iskandaria kuschakewitschi) (Herzenstein, 1890) populyatsiyasining morfometrik ko'rsatkichlari	174
Sh.U.Ashuraliyeva, E.X.Najmiddinov Isfayramsoy daryosida tarqalgan Amur chebakchasi (<i>Pseudorasbora parva</i>)ning morfologik o'zgaruvchanlik xususiyatlari.....	178
Y.N.Nazarova, G.M.Nabiyeva, N.A.Nurgaliyev Toshkent viloyati Yangiyo'l tumanidagi sug'oriladigan tuproqlarning agrokimyoviy xossalari.....	182
B.X.Baxromova, F.M.G'oziyeva Farg'ona vodiysida uchrovchi o'rgimchak <i>Argiope bruennichi</i> turining bioekologiyasi.....	188
Sh.I.Temirova, I.I.Zokirov Shiralar (Aphidoidea) koloniyalarini nazorat qilishda afidofaglarining roli	192
A.T.Turdaliyev, I.I.Musayev, A.A.Ahmadjonov, Y.H.Muhammadov Sug'oriladigan tuproqlarning ekologik holati	198
M.A.Masodiqova Farg'ona vodiysining turli landshaft hududlaridagi <i>Lymantria dispar</i> populyatsiyasining mavsumiy dinamikasi	203
Sh.Q.Yuldasheva <i>Panaphis juglandis</i> shiralarining morfologik o'zgaruvchanligiga tashqi muxit omillarining ta'siri	208
N.A.Nurgaliyev, O.N.Imomov Qumli cho'l tuproqlarining biologik xossalari va ularni yaxshilash yo'llari.....	212
Y.Q.Qayumova, D.E.Urmonova Farg'ona vodiysi suv havzalarida uchrovchi yalangbaliqlarni tarqalishi va muhofaza masalalari	218
M.B.Zohidova, G.M.Zokirova <i>Chrysolina coerulans</i> (Scriba, 1791) bargxo'r qo'ng'izining o'simliklar bilan trofik munosabatlari	227

GEOGRAFIYA

O.I.Abduganiev, E.G'.Maxkamov Ekologik ta'lim-tarbiyada fan va amaliyot birligini ta'minlashning dolzarb masalalari	233
O.I.Abdug'aniyev, T.D.Komilova Ekologik karkasni shakllantirish: zamonaviy modellar va amaliyot	237
R.T.Pirnazarov O'zbekiston va unga tutash tog'li hududlardagi glyatsiogen ko'llar va ularning suv resurslari (Isfayramsoy daryosi havzasi misolida)	243
R.T.Pirnazarov Tog' ko'llarining evolyutsiyasi, genetik tasniflari va o'ziga xos xususiyatlari.....	247
M.R.Usmanov O'zbekistonda turizm sohasida olib borilayotgan islohatlar va ularning geografik jihatlari.....	247
A.A.Isayev O'zbekiston avtomobil yo'llari infratuzilmasining hududiy tarkibidagi o'zgarishlar	253

ILMIY AXBOROT

A.K.Xusanov, Z.S.Qosimjonova Tunlam kapalaklari (Lepidoptera: Noctuidae) oilasining adabiyotlarda o'rganilishi.....	257
---	-----

glyatsiogen ko'llar to'g'onining buzilishi oqibatida ro'y bergan halokatli sel toshqinlari birgina Isfayramsoy daryosining o'zida 1928, 1966 (iyun) va 1977 (may-iyun) yillarda aholi, ularning uy-joylari, mol-mulki va boshqa xalq xo'jaligi obyektlariga katta talofat keltirgan [1]. Shu maqsadda, mazkur ishda Isfayramsoy daryosi havzasidagi glyatsiogen ko'llar va ularda to'plangan suv resurslarining geografik tarqalish qonuniyatlari asosiy masala sifatida yoritib berildi.

O'rta Osiyo, jumladan O'zbekiston tog'larining nisbatan baland zonalarida to'g'onli ko'llarning glyatsiogen (muzlik va morena) genezisiga mansub turlari ko'p tarqalgan. Ularning soni 4000-4500 metr balandliklar oralig'ida maksimal qiymatga erishadi [6].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O'rta Osiyodagi to'g'onli ko'llarning, xususan glyatsiogen kelib chiqishli ko'llarning geografik tarqalishi masalalari haqidagi ilk ilmiy qarashlarni L.A.Molchanov (1929), S.D.Muraveyskiy (1960), V.N.Reyzvix va A.M.Nikitin (1968), A.M.Nikitin (1987) kabi olimlarning asarlarida uchratamiz. Bevosita glyatsiogen ko'llarining xavfsizligi masalalari, ularni gidrologik va geomorfologik nuqtai-nazardan dala sharoitida tadqiq etish natijalari R.A.Usabaliyev va S.A.Yeroxin (2007) larning tadqiqotlarida batafsil yoritib berilgan [2, 3, 5, 6, 7].

O'rta Osiyoda glyatsiogen ko'llarning geografik tarqalishiga doir ma'lumotlar A.M.Nikitin (1987) tadqiqotlarida yoritib berilgan. Muallif o'zining "Озера Средней Азии" monografiyasida 53 ta (shundan 38 tasi morena va 15 tasi kara) glyatsiogen ko'llar ro'yxatini keltirgan (mazkur ro'yxatda muzlik ko'llari qayd etilmagan) [6].

O'zbekiston Respublikasi Gidrometeorologiya ilmiy tadqiqot instituti (GMITI) hodimlari tomonidan bevosita O'zbekiston hududiga dahl etib turuvchi 278 ta glyatsiogen ko'llar ro'yxatga olingan. Ularning 77 tasi Isfayramsoy daryosi havzasiga to'g'ri keladi [8].

NATIJA VA MUHOKAMA

Isfayramsoy daryosi havzasidagi glyatsiogen ko'llar 17 ta daryo havzasida 2501-4500 metr balandliklar oralig'ida tarqalgan. Ularning soni 2501-4000 metr balandliklar oralig'ida 3 tadan 41 tagacha ortib borib, keyingi balandlik zonasida 28 ta ko'l qayd etilgan (1-jadval) [4].

1-jadval

Isfayramsoy daryosi havzasidagi glyatsiogen ko'l tiplarining balandlik zonalari va daryolar havzalari bo'yicha taqsimlanishi

Daryo havzalari	Balandlik zonalari, m								Jami	
	2501-3000		3001-3500		3501-4000		4001-4500			
	morena	muzlik	morena	muzlik	morena	muzlik	morena	muzlik	morena	muzlik
Alchimbarsoy	-	-	-	-	1	-	-	2	1	2
Archa-Kanish	-	-	-	-	-	5	-	1	-	6
Dastorota	2	-	1	-	1	-	-	2	4	2
Jumasuv	-	-	-	-	-	1	-	-	-	1
Isfayram	-	-	-	-	1	2	-	-	1	2
Kaindi	-	-	-	-	-	2	-	-	-	2
Kichik Oloy	-	-	-	-	-	-	1	-	1	-
Maliksuv	-	-	-	-	-	-	1	-	1	-
Minjilke	-	-	1	-	-	-	-	-	1	-
Sovuq yaylov	-	-	3	-	3	5	-	1	6	6
Surmatosh	-	-	-	-	-	1	-	-	-	1
Tegirmoch	1	-	-	-	4	2	1	4	6	6
Tengizboy	-	-	-	-	2	-	-	1	2	1
Tolon	-	-	-	-	4	2	-	2	4	4
Trumsuv	-	-	-	-	3	1	1	6	4	7
Tuzashu	-	-	-	-	1	-	1	3	2	3
Shibbe	-	-	-	-	-	-	-	1	-	1
Jami	3	-	5	-	20	21	5	23	33	44
Foiz	3,9	-	6,5	-	26,0	27,3	6,5	29,9	42,9	57,1

GEOGRAFIYA

Havzadagi glyatsiogen ko'llarning ko'pchiligi Sovuq yaylov, Tegirmoch (12 ta, 15,6%), Trumsuv (11 ta, 14,3%), Tolon (8 ta, 10,4%), Archa kanish hamda Dastorota (6 ta, 7,8%) daryolari havzalarida joylashgan. Eng kam ko'llar Jumasuv, Kichik Oloy, Malikuv, Minjilke, Surmatosh, Shibbe daryolari havzasiga (1 tadan) to'g'ri keladi.

Isfayramsoy daryosi havzasidagi 2501-3000 metr balandliklarda joylashgan 3 ta glyatsiogen ko'llarning 2 tasi Dastorota va 1 tasi Tegirmoch daryo havzalariga to'g'ri keladi. Keyingi 3001-3500 metr balandliklardagi 5 ta ko'l Sovuq yaylov (3 ta), Dastorota (1 ta), Minjilke (1 ta) daryolari havzalarida joylashgan.

Havzadagi ko'llar soni 3501-4000 metr balandliklar oralig'ida keskin ko'payadi. Bu balandlik zonasidagi 41 ta ko'lning ko'pchiligi Sovuq yaylov (8 ta), Tegirmoch, Tolon (6 ta), Archa Kanish (5 ta), Trumsuv (4 ta) daryolari havzasida joylashgan. Eng baland zonalar (4001-4500 m)da joylashgan 28 ta ko'lning eng katta miqdori Trumsuv (7 ta), Tegirmoch (5 ta), Tuzashu (4 ta) daryolari havzasiga to'g'ri keladi. Faqatgina Jumasuv, Isfayram, Kaindi, Minjilke, Surmatosh daryolari havzasida bu balandlik zonasida glyatsiogen ko'llar mavjud emas.

Isfayram havzasidagi morena va muzlik ko'l tiplarining soni turli balandlik zonalarida bir-biridan tubdan farq qiladi. Isfayram havzasidagi glyatsiogen ko'llarning 33 tasini (42,9%) morena hamda 44 tasini (57,1%) muzlik ko'llari tashkil etadi. Morena ko'llari havzaning 2501-3500 metr balandlik zonalarida 3 tadan 5 tagacha ortib, 3501-4000 metr balandliklarda ular soni 20 taga yetadi. Keyingi balandlik zonasida esa morena ko'llari soni 5 tani tashkil etadi. Muzlik ko'llari 3501-4000 va 4001-4500 metr balandliklar oralig'ida mos ravishda 21 ta va 23 taga to'g'ri keladi [8].

Glyatsiogen ko'llar gidrologik rejimining o'zgaruvchanligi, suv sathini katta miqdorda tebranib turishi, suv balans elementlarining o'zgarishi bilan bog'liq holda suv massasi ham keskin o'zgarib turishi bilan xarakterlanadi. Glyatsiogen ko'llar uchun qisqa vaqt ichida paydo bo'lib, qisqa vaqt ichida yo'qolib turishi, muzlik to'g'onining o'pirilishi natijasida qisqa vaqt ichida katta suv sarfiga ega bo'lib, halokatli toshqinlarni keltirib chiqarishi xosdir. Bu holat ularning to'g'onli ko'llar bilan umumiy belgilaridir.

Glyatsiogen ko'llarning suv sathini keskin o'zgarishi ular joylashgan joyning ekspozitsiyasiga bog'liq holda termik sharoitni o'zgarishi bilan belgilanadi. Biroq, glyatsiogen ko'llarning joylashgan o'rnining doimiy gidrologik postlar tashkil etish, muttasil nazorat qilib turish va ilmiy tadqiqotlar o'tkazish uchun juda noqulayligi tufayli bunday ko'llarning morfologik, morfometrik hamda gidrologik elementlari haqida umuman ma'lumotlar mavjud emas. Shunday bo'lsada, O'zbekiston Respublikasi Gidrometeorologiya ilmiy tadqiqot instituti (GMITI) ning qo'limizdagi mavjud ma'lumotlariga asoslanib, Isfayramsoy daryosi havzasida joylashgan glyatsiogen ko'llarda to'plangan suv resurslarini turli balandlik zonalar bo'yicha taqsimlanish masalalariga alohida to'xtalib o'tamiz.

Isfayramsoy daryosi havzasidagi mavjud 77 ta glyatsiogen ko'llarda 14670,1 m³ hajmda suv to'planib, balandlik zonalar bo'yicha notekis taqsimlangan (2-jadval) [8].

2-jadval

Isfayramsoy daryosi havzasidagi glyatsiogen ko'llarda to'plangan suv hajmining balandlik zonalar va daryolar havzalari bo'yicha taqsimlanishi (ming m³)

Daryo havzalari	Balandlik zonalar, m								Жами	
	2501-3000		3001-3500		3501-4000		4001-4500			
	morena	muzlik	morena	muzlik	morena	muzlik	morena	muzlik	morena	muzlik
Alchimbarsoy	-	-	-	-	24,0	-	-	280,0	24,0	280,0
Archa-Kanish	-	-	-	-	-	367,0	-	24,0	-	391,0
Dastorota	23,5	-	8,0	-	240,0	-	-	10,0	271,5	10,0
Jumasuv	-	-	-	-	-	15,0	-	0	-	15,0
Isfayram	-	-	-	-	40,0	64,0	-	0	40,0	64,0
Kaindi	-	-	-	-	-	56,0	-	0	-	56,0
Kichik Oloy	-	-	-	-	-	-	840,0	0	840,0	0
Malikuv	-	-	-	-	-	-	4,0	0	4,0	0

Minjilke	-	-	240,0	-	-	-	-	0	240,0	0
Sovuq yaylov	-	-	831,5	-	190,0	166,0	-	21,0	1021,5	187,0
Surmatosh	-	-	-	-	-	24,0	-	0	-	24,0
Tegirmoch	60,0	-	-	-	5215,0	204,0	20,0	44,0	5295,0	248,0
Tengizboy	-	-	-	-	21,0	-	-	18,0	21,0	18,0
Tolon	-	-	-	-	540,0	62,0	-	55,5	540,0	117,5
Trumsuv	-	-	-	-	7,0	15,0	6,0	78,6	13,0	93,6
Tuzashu	-	-	-	-	50,0	-	4600,0	200,0	4650,0	200,0
Shibbe	-	-	-	-	-	-	-	6,0	-	6,0
Jami	83,5	-	1079,5	-	6327,0	973,0	5470,0	737,1	12960,0	1710,1
Foiz	0,6	-	7,3	-	43,1	6,7	37,3	5,0	88,3	11,7

Bu borada ham yuqoridagiga mos holat, ya'ni 2501-4000 metr balandliklar oralig'ida ularning miqdori ortib borib (83,5 ming m³ dan 7300,0 m³ gacha), 4001-4500 metr balandliklarda 6207,1 m³ hajmda suv to'planganligining guvoh bo'lamiz. Aniqroq aytadigan bo'lsak, 2501-3000 metr balandliklardagi 3 ta ko'lda 83,5 ming m³ (0,6%), 3001-3500 metr balandliklardagi 5 ta ko'lda 1079,5 ming m³ (7,3%), 3501-4000 metr balandliklardagi 41 ta ko'lda, 7300,0 ming m³ (49,8%) hamda 4001-4500 metr balandliklardagi 28 ta ko'lda 6207,1 ming m³ (42,3%) hajmda suv to'plangan. Ular orasida eng katta suv hajmiga ega bo'lgan glyatsiogen ko'llar Tegirmoch (5,5 mln m³ yoki 37,8%), Tuzashu (4,9 mln m³ yoki 33,1%), Sovuq yaylov (1,2 mln m³ yoki 8,2%), Kichik Oloy (0,8 mln m³ yoki 5,4%), Tolon (0,7 mln m³ yoki 4,5%) daryolari havzasida joylashgan [4].

Isfayramsoy daryosi havzasidagi glyatsiogen ko'llarda to'plangan 14670,1 ming m³ hajmdagi suvning 88,3 foizi, ya'ni 12960 ming m³ qismi morena ko'llariga, qolgan 11,7 foizi (1710,1 ming m³) esa muzlik ko'llariga to'g'ri keladi. Havzadagi 77 ta ko'lining 33 tasini morena ko'llari, 44 tasini esa muzlik ko'llari tashkil etishini inobatga olsak, morena ko'llarining o'rtacha suv hajmi 392,7 ming m³, muzlik ko'llarini esa 38,9 ming m³ ni tashkil etadi.

XULOSA

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, morena ko'llarining soni muzlik ko'llariga nisbatan oz bo'lishiga qaramay, suv zahirasi asosiy qismi aynan shu turdagi ko'llarga to'g'ri keladi. Muzlik ko'llari esa soni ko'p bo'lsada, ularning ko'l kosolari kichikligi sababli ularda to'plangan suv hajmi ham juda kichik qiymatlarni tashkil etadi. Lekin shunday bo'lsada, har ikki tipga mansub ko'llarning suv toshqini keltirib chiqarish xavfini past baholab bo'lmaydi. Chunki, bitta daryo havzasida shunday ko'llardan bir nechtasini ketma-ket joylashganligini inobatga olsak, ularda ro'y berishi mumkin bo'lgan suv toshqinlari juda halokatli tus olishi aniq. Zero, 1998 yil 7-8 iyul kunlari Shohimardonsoy daryosi havzasidagi Qora Qoziq muzlik ko'li to'g'onining o'pirilishidan shakllangan sel toshqini keltirib chiqargan ekologik halokat oqibatlarini ko'pchilik hanuzgacha unutgani yo'q.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Корженевский Н.Л. Исфайрамсай. –Ташкент, 1936. – Вып.27. – 95 с.
2. Молчанов Л.А. Озера Средней Азии // Труды САГУ, – Ташкент, 1929. – Сер. 12-а. – Вып.3. – 83 с.
3. Муравейский С.Д. Очерки по теории и методам морфометрии озер // В кн.: Реки и озера. – М.: Географгиз, 1960. – С. 91-125.
4. Пирназаров Р.Т., Хикматов Ф.Х. Тўғонли кўлларнинг гидрометеорологик режими ва улар хавфини камайтириш масалалари (Қурбонқўл мисолида). Монография. –Тошкент: Fan va texnologiya, 2013. -176 б.
5. Рейзвих В.Н., Никитин А.М. К вопросу о географическом распределении и типизации озер Средней Азии // Сб. работ ТГМО. – Ташкент, 1968. – Вып.8. – С. 3-20.
6. Никитин А.М. Озера Средней Азии. – Л.: Гидрометеоиздат, 1987. – 106 с.
7. Усубалиев Р.А., Ерохин С.А. Формирование высокогорных озер как следствие деградации современного оледенения Тянь-Шаня // Материалы гляциологических исследований. – Москва, 2007. –Вып.103. – С.134-137.
8. O'zbekiston Respublikasi Gidrometeorologiya ilmiy tadqiqot instituti (GMITI) fond materiallari.



UO'K: 911.5 (575.144)

O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASIDA OLIB BORILAYOTGAN ISLOHATLAR VA ULARNING GEOGRAFIK JIHATLARI**РЕФОРМЫ В СФЕРЕ ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ И ИХ ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ****REFORMS IN THE FIELD OF TOURISM IN UZBEKISTAN AND THEIR GEOGRAPHICAL ASPECTS****Usmanov Mashrab Rustamovich** 

Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Annotatsiya

Ushbu maqolada yurtimizda turizmni rivojlantirish masalalari, turizmning iqtisodiyotga ta'siri, xorijiy olimlar turizm to'g'risidagi nazariyasi, respublikamizda turizm sohasida olib borilayotgan islohotlar, O'zbekistonga tashrif buyuradigan xorijiy sayyohlar, xorijiy sayyohlar davlatlar kesimida, turistik tashriflar, turistik axborot, shuningdek, iqtisodiyotimiz salohiyatini yanada oshirishda turizmning o'rnini hamda rolini oshirish bo'yicha amalga oshirish lozim bo'lgan vazifa va chora-tadbirlar belgilab berilgan. Shuningdek, turizmning iqtisodiyotga ta'siri faqatgina mehmonxonalar va restoranlarga cheklanmay, balki kengroq infrastruktura loyihalari, jamoat xizmatlari, savdo va transport sohaslarini ham qamrab olishi, jahonda yuz berayotgan globalizatsiya jarayonlarining tezlashib borishi davlatlardan turizm tarmog'ini rivojlantirish orqali muhim masalalarni yechish imkoniyatini yaratishni taqozo etmoqda. Mamlakatimizning betakror tabiati, milliy qo'riqxonalar, tog'li hududlarda turizmni rivojlantirish uchun katta salohiyat mavjud. Ayniqsa, tibbiyot turizmi, ziyorat turizmi va ekoturizmni rivojlantirish nafaqat iqtisodiyot, balki ijtimoiy sohasi rivojiga ham katta turtki beradi. Bugungi kunda rivojlangan davlatlar ilmiy tadqiqotlarida turizm sohasini ularning iqtisodiyotiga, ijtimoiy sohasiga, ekologiya va boshqa sohalarga ta'siri o'rganish bo'yicha bir qancha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Keyingi yillarda respublikamizda turizm sohasida olib borilayotgan islohatlar tufayli yildan-yilga yurtimizga xorijlik sayyohlarning tashrifi ortib bormoqda. Xorijiy sayyohlar tashrifi davlatlar kesimida, O'zbekiston – boy tarixiy va madaniy merosga ega mamlakat bo'lib, uning turizm sohasi so'nggi yillarda jadal sur'atlar bilan rivojlanishi, mamlakatimizda turizmni rivojlantirishda mavjud imkoniyatlarimizdan keng foydalanish va xorij tajribalarini amalga qo'llash, mahalliy aholi va sayyohlarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda yo'l infratuzilmasini rejalashtirish va modernizatsiya qilish orqali mamlakat fuqarolarining turistik faolligini orttiradi hamda xorijiy turistlar oqimi ko'payishiga olib keladi.

Аннотация

В данной статье рассмотрены вопросы развития туризма в нашей стране, влияние туризма на экономику, теории зарубежных ученых о туризме, реформы, проводимые в сфере туризма в нашей республике, иностранные туристы, посещающие Узбекистан, иностранные туристы по странам, туристические визиты, туристическая информация, а также задачи и меры, которые необходимо реализовать для повышения роли и места туризма в дальнейшем повышении потенциала нашей экономики. Кроме того, влияние туризма на экономику не ограничивается гостиницами и ресторанами, а охватывает более широкие инфраструктурные проекты, общественные услуги, торговлю и транспортный сектор, а ускорение процессов глобализации, происходящих в мире, требует от стран создания возможностей для решения важных вопросов путем развития туристической отрасли. Уникальная природа нашей страны, национальные заповедники и горные регионы имеют большой потенциал для развития туризма. В частности, развитие лечебного, паломнического и экологического туризма даст значительный импульс развитию не только экономики, но и социальной сферы. Сегодня научные исследования в развитых странах проводят ряд научных исследований по изучению влияния туристической отрасли на их экономику, социальную сферу, экологию и другие сферы. В последние годы, благодаря проводимым в нашей республике реформам в сфере туризма, количество иностранных туристов, посещающих нашу страну, из года в год увеличивается. Узбекистан с точки зрения притока иностранных туристов является страной с богатым историко-культурным наследием, а его туристическая сфера в последние годы развивается стремительными темпами. Широко используя имеющиеся возможности в развитии туризма в нашей стране и применяя зарубежный опыт, планируя и модернизируя дорожную инфраструктуру с учетом потребностей местного населения и туристов, мы повысим туристическую активность граждан страны и приведем к увеличению потока иностранных туристов.

Abstract

This article discusses the issues of tourism development in our country, the impact of tourism on the economy, the theories of foreign scientists on tourism, the reforms being carried out in the tourism sector in our republic, foreign tourists visiting Uzbekistan, foreign tourists by country, tourist visits, tourist information, as well as tasks and measures to be implemented to increase the role and place of tourism in further increasing the potential of our economy. Also, the impact of